

FARG‘ONA VILOYATIDA AHOLI SONI VA UNING O‘ZGARISHLARI TAHLILI

Komilova Nilufar Qarshiboyevna

O‘zbekiston Milliy Universiteti professori, g.f.d.

Berdiyev G‘ayratjon Xasanboyevich

Qo‘qon davlat pedagogika institut katta o‘qituvchisi

ghairatjohn@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy referatda Farg‘ona viloyatidagi aholi va uning o‘zgarishlari tahlili, asosiy demografik jihatlariga e‘tibor qaratilgan. Tadqiqot mintaqadagi aholi tarkibi va etnik xilma-xillikni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishga ta‘sirini o‘rganadi. Rivojlanayotgan aholi dinamikasini tushunish uchun demografik o‘zgarishlar, jumladan, yosh va jins taqsimotidagi o‘zgarishlar tekshiriladi. Natijalar Farg‘ona viloyatida aholining rivojlanish tendentsiyalarini har tomonlama tushunishga yordam beradi, siyosatchilarga barqaror rivojlanish va resurslarni taqsimlash strategiyalarini shakllantirishda yordam beradi.

***Kalit so‘zlar:** Farg‘ona viloyati, aholi soni, demografik o‘zgarishlar, aholi tarkibi, milliy tarkib, demografik yuklama koeffitsiyenti, yosh-jins piramidasi.*

ANALYSIS OF THE POPULATION AND ITS CHANGES IN THE FERGANA REGION

ABSTRACT

This scientific abstract presents an analysis of population and its changes in the Fergana Region, focusing on key demographic aspects. The study examines the population composition and ethnic diversity within the region, considering the implications for social and economic development. Demographic changes, including shifts in age and sex distribution, are investigated to understand the evolving population dynamics. The findings contribute to a comprehensive understanding of population trends in the Fergana Region, aiding policymakers in formulating strategies for sustainable development and resource allocation.

***Key words:** Fergana region, population, demographic changes, population composition, ethnic composition, demographic load factor, age and sex pyramid.*

KIRISH.

Farg‘ona viloyati aholi sonining dinamikasi bo‘yicha katta ahamiyatga ega bo‘lib, mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy landshaftini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu mintaqadagi aholi soni va o‘zgarishlarini tushunish samarali rejalashtirish, resurslarni taqsimlash va siyosatni shakllantirish uchun juda muhimdir. Ushbu ilmiy maqola Farg‘ona viloyatidagi aholi va uning o‘zgarishlarini har tomonlama tahlil qilish, asosiy demografik tendentsiyalar va ularning oqibatlarini yoritishga qaratilgan.

Farg‘ona viloyati aholisining dinamikasini o‘rganish orqali ushbu tadqiqot mintaqaviy demografiya bo‘yicha mavjud bilimlarga hissa qo‘shishdan iborat. Bundan tashqari, natijalar siyosatchilar, shaharsozlik mutaxassislari va ijtimoiy olimlarga aholi o‘zgarishi bilan bog‘liq muammolar va imkoniyatlarni tushunishda yordam beradi va shu orqali Farg‘ona viloyati aholisining barqaror rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va hayot sifatini yaxshilash uchun maqsadli tadbirlarni shakllantirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Tadqiqotlar mintaqaviy rivojlanish va rejalashtirish uchun aholi dinamikasini tahlil qilish muhimligini ta’kidlaydi. Aholi soni, o‘sish sur‘ati, yosh tarkibi va migratsiya shakllari doimiy ravishda turli ijtimoiy-iqtisodiy jihatlariga, jumladan, mehnat bozorlari, sog‘liqni saqlash tizimlari va infratuzilmaga bo‘lgan talablarga ta’sir qiluvchi hal qiluvchi omillar sifatida belgilandi.

Yig‘ilgan ma’lumotlarni tahlil qilish uchun statistik usullar qo‘llanildi. Ma’lumotlarni umumlashtirish uchun tavsiflovchi statistik ma’lumotlar, masalan, o‘rtacha, foizlar va standart og‘ishlar ishlatilgan. Bundan tashqari, aholi soni o‘sishi dinamikasini ko‘rish uchun grafik tasvirlar, jumladan diagrammalar, grafiklar ishlatilgan.

NATIJALAR

Farg‘ona viloyatida aholi sonining o‘zgarishi uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Aholi sonining o‘sishi kengayib borayotgan aholi ehtiyojlarini qondirish uchun tegishli infratuzilma, sog‘liqni saqlash va ta’lim muassasalarini ta’minlashda qiyinchiliklar tug‘diradi. Keksa yoshdagi aholi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot tizimlariga talablar qo‘yadi, bu esa keksalarning ehtiyojlarini qondirish uchun maqsadli siyosatni talab qiladi.

Farg‘ona viloyati respublikamizda o‘ziga xos tabiiy-ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik xususiyatlarga ega bo‘lgan hududlardan biri hisoblanadi. Viloyat aholisi soni 2023 yil 1 yanvar holati bo‘yicha 3976,3 ming kishini tashkil etgan holda muntazam ko‘payib bormoqda. Mustaqillikdan so‘ng viloyat aholisi soniga 1 761,4 ming kishi qo‘shildi yoki hozirgi mavjud aholining 44,3 foizi qo‘shildi. Viloyat aholisi soni bo‘yicha respublikada faqat Samarqand viloyatidan so‘ng turadi (2000 yilgacha

Farg‘ona viloyati aholisi Samarqand viloyati aholisidan ko‘p bo‘lgan). Buncha aholi soni tassavvur qilish uchun quyidagilarga e‘tibor bering; Farg‘ona viloyati aholisi soni Tojikistonning 41%, Turkmanistonning 65%, Qirg‘izistonning 59%, Qozog‘istonning 20%, Mongoliyaning 114%, Latviyaning 200%, Estoniyaning 300%, Armanistonning 130%, Gruziyaning 105%, Islandiyaning 1000%, O‘zbekistonning 10,8% aholisiga tengdir.

Mustaqillik yillarida Farg‘ona viloyati aholisi soni dinamikasida tug‘ilishning kamayishi va migratsiya qoldig‘ining manfiyligi sababli o‘shir sur‘ati pasaydi. Ayniqsa shahar aholisining viloyatdagi ulushi kamayib bordi. Urbanizatsiya darajasi 31 dan 27,8 ga tushib ketgan edi, ammo 2009 yildagi yirik qishloqlarga shaharcha maqomining berilishi oqibatida shahar aholi salmog‘i 58,8 foizgacha ortib ketdi. Aholining yillik ko‘payish darajasi 1,84 foizni tashkil qiladi. Lekin bu ko‘rsatkich asosan 1997 yilgacha bo‘lgan yuqori tug‘ilish natijasidir. 2000 yildan 2009 yilgacha viloyat aholisi 113,4 foizga o‘sgan holda, yillik ko‘payish 1,3 foizni tashkil etgan holos. So‘nggi yillarda aholining yillik o‘shir darajasi ko‘tarilmoqda, asosan tug‘ilishning umumiy miqdori o‘shiri hisobiga bunga erishildi. Anomal holatdagi 2010 yilgi aholi sonining ko‘payishi qo‘shni Qirg‘iziston Respublikasida yuz bergan milliy nizolar oqibatida bo‘lgan. Viloyat aholisi sonidagi o‘zgarishlarni quyidagi jadvaldan ko‘rishimiz mumkin.

*1 - jadval**

Mustaqillik yillarida Farg‘ona viloyati aholisining soni, joylashishi va yillik ko‘payishi.

Yillar	Umumiy soni, ming kishi	Shahar aholisi, ming kishi	Qishloq aholisi, ming kishi	Urbanizatsiya darajasi, foizda	yillik ko‘payish, foizda
1991	2214,6	686,2	1528,4	31,0	2,5
2000	2664,4	776,1	1888,3	29,1	1,2
2010	3074,6	1802,5	1272,1	58,6	5,0
2020	3 752,0	2 117,7	1 634,3	56,4	1,8
2023	3 976,3	2 264,1	1 712,2	56,9	

**Jadval Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi ma‘lumotlari asosida tuzildi.*

Farg‘ona viloyatida aholi zichligi 1 km² ga 588,3 kishini tashkil etgani holda, bu ko‘rsatkich bo‘yicha respublikamizda faqat Andijon viloyatidan keyin turadi. Tumanlar ichida aholisi eng zich joylashgan Toshloq tumanidir. Bu tumanda aholi zichligi 1 km.kv.ga 881,9 kishini tashkil etadi (2023 yil 1 yanvar holatiga). Aholi zichligi bo‘yicha tumanlar ichida keyingi o‘rinlarda Buvayda – 865,6 va Uchko‘prik –


857,3 kishi turadi. Aholi zichligi ko'rsatkichlari viloyatning Markaziy Farg'ona va tog'-adir mintaqalarida joylashgan tumanlarda kamroq. Masalan, Yozyovon tumanida 288,1, So'x tumanida – 371,8 kishi, ya'ni bu tumanlarda aholi zichligi viloyat darajasidan ancha past ko'rsatkichga ega.

MUHOKAMA

Viloyat aholisi milliy tarkibida so'nggi yillarda sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Mustaqillikdan so'ng ko'plab Yevropa va Osiyo halqlari o'z ota vatanlariga qaytib keta boshladi. Ayniqsa, slavyan millatlari vakillari, mesxeti – turklar, koreys va greklar o'z yurtlariga ko'chib ketishi kuzatildi. Boshqa millat vakillarida aholi takror barpo bo'lishining sustligi bu millat vakillarini viloyatdagi ulushini qisqarishiga olib kelgan ikkinchi omildir.

*1 - chizma. **

Farg'ona viloyati aholi milliy tarkibi (2022 yilga nisbatan, foizda)



** Chizma Farg'ona statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.*


Viloyat aholisi jinsiy tarkibidagi nisbat katta emas, 50,4% erkaklar, 49,6 % ayollarni tashkil qiladi, ya'ni har 1014 erkakka 1000 ayol to'rg'i keladi. Lekin bu ko'rsatkich 1992 yil bilan taqqoslaganda sezilarli o'zgarishga uchraganini ko'rishimiz mumkin. Mustaqilligimizning dastlabki yillarida jami aholi tarkibida ayollar salmig'i ko'proq bo'lgan 50,7%, ya'ni har 974 erkakka 1000 ta ayol to'g'ri kelgan. Shuningdek, aholining jinsiy tarkibida hududiy farqlar mavjud, masalan, yirik shaharlarda erkaklar salmog'i kamroq, (Farg'ona shaxri – 49,3, Qo'qon shaxri 49,0) Bag'dod va Uchko'prik tumanlarida ham erkaklar 50 foizdan kam.

Aholi salomatligini noozogeografik jihatlarini o'rganishda eng muhim ko'rsatkich bu aholining yosh tarkibidir. 2022 yilgi ma'lumotlarga ko'ra viloyat aholisining yosh guruhlarida yoshlarining (0-15 yoshlilar) xissasi 30,7 foizni tashkil

qiladi. Bu ko'rsatkich 1992 yilda 42,2 foiz bo'lgan edi. Aholi yosh guruhi tarkibida yoshlar salmog'ining kamayishiga birinchi navbatda tug'ilish darajasining pasayishi sabab bo'lmoqda. Shu yillarda qishloq aholisi yosh tarkibida yoshlarning salmog'i 44,6 foizdan 33,4 (shaharlarda 28,7 foiz) foizga qisqarganligini ko'rishimiz mumkin. Mehnat yoshidagi aholi (16-59 yosh) soni 2022 yilda 60 foizni tashkil qilgan. 1992 yilda bu yosh guruhidagi aholi soni 51,2 foizni tashkil qilgan edi. Aksincha mustaqillik yillarida qishloq joylarda bu yosh guruhidagi aholi soni 49,7 foizdan 57,6 foizga ko'payganligini ko'rishimiz mumkin. Aholi tarkibida yana 20 – 25 yil mehnat yoshidagi aholi o'sib boradi. Qariyalar salmog'i (60 yoshdan kattalar) 9,2 foizni tashkil qilgani holda, 1992 yilda bu ko'rsatkich 6,6 foizga teng edi. Hozirda qariyalar salmog'ining kamayishi asta sekin to'xtab, qariyalar salmog'i ortib borishi kuzatilayotgan davr boshlandi.

2 - chizma.*

Farg'ona viloyati aholisining yosh-jins piramidasi (2022 yil)



* Chizma Farg'ona statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

Yuqoridagi viloyat aholisining yosh-jins piramidasida Ikkinchi jahon urushining aholi soniga salbiy ta'siri deyarli aks etmaydi, aksincha, 2000 yillarda tug'ilishning pasayishi natijasida 2022 yilgi yosh-jins piramidasida yirik kemptik paydo bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

1894-yilda shved statistik va demografi A. G. Sundberg aholi yoshi tarkibining uch turini taklif qildi: progressiv, statsionar va regressiv. Progressiv turi bolalarning yuqori ulushi va butun populyatsiyada keksa avlodning past ulushi bilan tavsiflanadi. Uning shakllanishi aholing yuqori takror barpo bo'lishiga asoslangan. Yosh piramidasi uchburchak shakliga ega bo'ladi, uning asosi tug'ilish darajasiga bog'liq. Statsionar turi oddiy ko'payish turiga asoslangan, yosh piramidasi bolalar va keksa yoshdagi guruhlarning deyarli muvozanatli nisbati bo'lgan qo'ng'iroq shakliga ega. Regressiv turi aholi kamayishi bilan yuz beradi, uning yoshi-jins piramidasi savatcha shakliga ega bo'ladi. Bu qariyalar va qariyalarning nisbatan yuqori ulushi va bolalarning kam ulushi bilan tavsiflanadi.

Demografik yuklama koeffitsiyenti iqtisodiy faol aholiga qancha bolalar, qariyalar to'g'ri kelishini ifodalaydi. Demografik yuk turli xil ma'noga ega bo'lishi mumkin: ijobiy - bolalarning yuki qariyalar yukidan oshib ketganda va aksincha, o'ta salbiy - qariyalar yuki ustun bo'lgan taqdirda. Bu demografik qarish (depopulyatsiya) muammolariga olib kelishi mumkin.

Farg'ona viloyatida demografik yuk koeffitsiyenti 1992-yilda har 100 mehnat yoshidagi aholiga 101,3 ta bolalar va qariyalar to'g'ri kelgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 67 ni tashkil etgan. Oxirgi yillardagi tug'ilish darajasining pasayishi natijasida aholi yosh guruhi tarkibidagi yoshlar salmog'ining kamayishi hamda qariyalar salmog'ining keskinlik bilan ko'payotganligi bunga sabab bo'lmoqda.

XULOSA

Farg'ona viloyatida aholi soni va uning o'zgarishlari tahlili viloyat ichidagi aholining ko'chish dinamikasi, tendentsiyalari va oqibatlari haqida qimmatli ma'lumotlar berdi. Natijalar mintaqaviy rivojlanish va rejalashtirish kontekstida aholi o'zgarishi bilan bog'liq muammolar va imkoniyatlarni tushunish va hal qilish muhimligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, Farg'ona viloyatida aholining qarish tendentsiyasi ijtimoiy ta'minot tizimlari va sog'liqni saqlash xizmatlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Siyosatchilar keksa aholining farovonligini ta'minlash uchun yoshga mos tibbiy yordam, uzoq muddatli parvarishlash muassasalari va qo'llab-quvvatlash tizimlarini ta'minlashga ustuvor ahamiyat berishlari kerak.

Xulosa qilib aytganda, Farg'ona viloyatida aholi soni va uning o'zgarishi tahlili mintaqaviy rivojlanish va rejalashtirish uchun qimmatli fikrlarni beradi. Muammolarni hal qilish va aholi dinamikasi taqdim etayotgan imkoniyatlardan foydalangan holda, siyosatchilar barqaror rivojlanishni rag'batlantirishi, aholining hayot sifatini yaxshilashi va mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini ta'minlashi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Alisherovich, Akbarov G‘olibjon, and Meliev Muzaffar Saydakbarovich. "Ecological Condition and Development Problems of Recreation Zones of Fergana Region." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.4 (2022): 803-807.
 2. Bo‘riyeva M.R. O‘zbekistonda oila demografiyasi. Toshkent, 1997 y.
 3. Bo‘riyeva M.R. Demografiya asoslari. Toshkent, 2001 y.
 4. Berdiev G‘.X., Akbarov G‘.A. Farg‘ona viloyatida demografik jarayonlarning qishloqlardagi xolati." Internauka 21.103 chast 3 (2019): 85.
 5. Komilova, Nilufar Kh, et al. "Medical Geographical Analysis of Population Health in Arid Climate Areas." European Journal of Molecular & Clinical Medicine 8.2 (2021): 1105-1116.
 6. Komilova N.K., Muxammedova N.J. / Tanatogeografiyaning nazariy va amaliy masalalari/ Monografiya. – Navoiy: «Zebo prints», 2023. – 132 bet.
 7. Komilova N., Ravshanov A., Muhammedova N. Tibbiyot geografiyasi va global salomatlik. T., 2018.
- Saidakbarovich, Meliyev Muzaffar, and Berdiyev Gayratjon Hasanboyevich. "PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS OF EDUCATION OF ENVIRONMENTAL LITERACY OF SCHOOL STUDENTS." ResearchJet Journal of Analysis and Inventions 3.12 (2022): 134-139.